

AZILON

(Azoksistrobin + Tebukonazol Aria) 32% SC

Azoksistrobin 12% + Tebukonazol 20%

Himoya qiluvchi va davolovchi ta'sirga ega bo'lgan tizimli fungitsid

Ta'sir qiluvchi modda: Litriga 120 gramm Azoksistrobin + litriga 200 gramm Tebukonazol

Birlashtirilgan moddalar: 68%

Ta'sir qiluvchi moddaning kimyoviy nomi:

Azoksistrobin: Metil (2E)-2-(2-{{6-(2-sianofenoksi) pirimidin-4-yl} oksil} fenil)-3-metoksiakrilat

Tebukonazol: (RS)- 1-(4-Xlorofenil)- 4,4-dimetil-3-(1H, 1,2,4-triazol-1-ilmetil) pentan-3-ol

Ta'sir qiluvchi moddaning toksikligi:

Azoksistrobin: Kalamushlar uchun o'tkir oral LD50: >5000 mg/kg

Tebukonazol: Kalamushlar uchun o'tkir oral LD50: :1700 (ayol), 4000 (ekrak) mg/kg

Xatar guruhi: Azoksistrobin: U, Tebukonazol: II

U odamlar va hayvonlar uchun xavfli.

Bolalar yeta olmaydigan joyda va qulflangan shkafda saqlang.

AZILON vositasidan foydalanishdan avval yorliqni diqqat bilan o'qib chiqing.

FRAC ga asoslangan qarshilik guruhi: Azoksistrobin 11-guruhga va Tebukonazol 3-guruhga tegishli.

Shuni yodda tutingki, ushbu fungitsidning o'rniga o'xshash kodli zaharlardan foydalanilmasligi kerak. O'simliklarni himoya qilish tashkilotining eksperti yoki o'simliklar patologiyasi klinikasi

bilan bu fungitsidning fermangizdagi zararkunandalarga ta'siri bo'yicha maslahatlashing. Bu mahsulot ushbu kombinatsiyaga genetik jihatdan qarshilikka ega bo'lgan zararkunandalarga ta'sir qilmaydi. Qarshilik qobiliyatining vujudga kelishining oldini olish uchun ushbu toksin boshqa pestitsidlar bilan birgalikda foydalanilishi kerak.

Kirish: Himoya qilish, davolash va eroziyalash ta'siriga ega bo'lgan tizimli fungitsid AZILON strobilurin guruhidan bo'lgan Azoksistrobin va triazol guruhidan bo'lgan Difenokonazoldan tashkil topgan.

Ta'sir qilish mexanizmi: Azoksistrobinlar III majmuadagi elektronlar o'tkazilishining oldini olish orqali hujayralar nafas olishini ingibirlaydi va Tebukonazol Ergosterol biosintezining oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanishlar (O'simliklarni himoya qilish tashkiloti tomonidan tavsiya qilingan)

Mahsulot nomi	Zararkunanda turi	Dozalari (gektariga millilitr)
Bug'doy	Puccinia striiformis var. striiformis	Gektariga 1 litr

AZILON fungitsidan O'simliklar patologiyasi mutaxassisleri tavsiyasi bo'yicha va faqat yuqorida keltirilgan ruxsat berilgan hollarda foydalanilishi kerak.

AZILON fungitsididan foydalanishga esga olib o'tilgan o'simliklar va esga olib o'tilgan kasalliklardan boshqa hollarda foydalanish tavsiya qilinmaydi.

Zaharlanish simptomlari: bosh og'rig'i, bosh aylanishi, qayt qilish va istima

Antidoti: AZILON fungitsidiga qarshi antidot mavjud emas va davolash simptomatik tarzda bo'ladi.

Atrof-muhitga zaharliligi: AZILON asalari, qushlar, baliq va suvda yashovchi boshqa organizmlar uchun juda xavflidir. Sepish asboblarni suv manbalari yaqinida yuvmang va suvni u bilan zararlanishiga yo'l qo'ymang.

Iste'molchilar diqqatiga: Ishlab chiqaruvchi nazoratidan tashqarida bo'lgan omillar tufayli yetkazilgan zararlar uchun iste'molchi javobgardir. Arya Shimi kompaniyasi mahsulotdan qanday foydalanilishi, saqlash sharoitlari, dozalari, iste'mol qilish vaqti, atrof-muhit sharoiti va iste'molchi tomonidan uning boshqa kimyoviy birikmalar bilan aralashtirilishi to'g'risida xabardor bo'lmaganligi sababli Kompaniya ushbu materiallar tufayli yetkazilgan zararlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi

Insektitsid mahsulotlar sotuvchilari diqqatiga: Sotuvchi xaridorning nomi va manzilini hamda sotilgan zahar miqdorini sotish sanasi bilan birgalikda tegishli kitobga qayd qilib qo'yishi kerak.

Saqlash va tashish shartlari: AZILON ni tashishda xavfli materiallar bilan ishlash bo'yicha xalqaro qoidalarga amal qilish lozim. Bu aralashma yopiq, salqin, quruq va qulflanadigan joyda, to'g'ridan-to'g'ri tushadigan quyosh nurlaridan panada va sog'lom belgisiga ega bo'lgan asl qadog'ida, bolalar, mutaxassis bo'lmaganlar va hayvonlar eta olmaydigan joyda hamda odam va hayvonlarning oziq-ovqatlaridan uzoqda saqlanishi kerak. Saqlanadigan joy shamollatib turilishi kerak. Saqlash harorati + 10 ° C dan + 35 ° C gacha.

Kerakli ehtiyot choralari: AZILON ni yutib yubormang yoki uning teriga, ko'zga va kiyimlarga tegishiga yo'l qo'ymang. Tashish, sepish va asboblarni yuvish vaqtida eruvchan zarrachalarni nafas bilan yutib yubormang yoki taom emang, ichimliklar ichmang va chekmang. Mahsulotni sepish vaqtida maxsus kiyim, bosh kiyim, maska, maxsus ko'zoynak va qo'lqop kiyib oling. Yengil shamol esayotgan vaqtda orqangizni shamolga qilgan holda seping. Sepish vaqtida eritmani qo'shni dalalar va bog'larga sepilishiga yo'l qo'ymang. Qo'llarga va teriga tekkan hollarda ularni darhol suv va sovun bilan yuvib tashlang. Bo'shagan idishlar va qadoqlarni suv resurslaridan uzoqda bo'lgan joyda saqlang va atrof-muhitga zararli bo'lgan materiallarni chiqitga chiqarishga oid milliy qoidalarga ko'ra chiqitga chiqaring.

Birinchi yordam ko'rsatish: Oshqozon-ichak intoksikatsiyasi yuz bergan hollarda shifokor etib kelgunicha bemorga bir stakan suv bering. Terining zararlanishi yuz bergan hollarda bemorning kiyimlarini echib tashlang va ta'sir qilgan joyni suv va sovun bilan yuvib tashlang. Agar nafas yo'llarining intoksikatsiyasi yuz bersa, bemorni ochiq havoga olib chiqing va ustini yopib qo'ying. Agar yuqoridagilardan birortasi yuz bersa, shifokorga murojaat qiling va mahsulot yorlig'ini ko'rsating.

Foydalanish usuli: Avval AZILON ning tavsiya qilingan dozasini foydalanish jadvaliga ko'ra chelakda eriting va keyin tayyorlangan eritmani yarmigacha suv bilan to'ldirilgan mikseri yoqilgan sepish bakiga quying. Keyin suvning qolgan yarmini quying va sepishni boshlang.

Qo'llashni boshqarish: Ikkita fungitsid Azoksistrobin + Tebukonazolni aralashtirish ularning samaradorligini orttiradi va ushbu komponentlariga bo'lgan orttirilgan qarshilik xavfini kamaytiradi.

Yaroqlilik muddati: Saqlash uchun kerakli sharoitlar ta'minlangan holda saqlanganda AZILON fungitsididan ishlab chiqarish sanasidan boshlab 2 yilgacha foydalanish mumkin

Arya Shimi kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan

Zavod: Zavod: Zohidon, sanoat shaharchasi, Talash hiyoboni, Telefon raqami: 054-33592112

Tehron ofisi manzili: Tehron, Punak, Shimoliy Adl hiyoboni, Uchinchi Fajr, 1/1. Telefon raqami: 021-45882

